



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA ICHKI TURIZM ISTIQBOLLARI

Tojiyeva Asal Samandar qizi

Toshkent Kimyo Xalqaro Universiteti

E-mail: asaltojiyeva03@gmail.com; [Tel:+998900521022](tel:+998900521022)

Annotatsiya: *Ushbu maqolamda turizmni rivojlantirish bo'yicha yurtimizda olib borilayotgan sa'y-harakatlar haqida batafsil ma'lumot berilgan. Respublikamizning tarixiy-madaniy joylari va bu joylarga tashrif buyuruvchilarni jalb qilish bo'yicha takliflar berilgan. Hamda Prezidentimizni Turizm sohasini yanada yaxshilash chora-tadbirlari keltirib o'tilgan. Shuningdek, ichki turizmni rivojlantirishda innovatsion usullarni qo'llash bo'yicha fikr-mulohazalar qayd etilgan. Shu bilan birga turizm sohasi bilan yurtimizni yanada dunyoga tanitish, sayyohlarni jalb etish chora-tadbirlari haqida ham so'z boradi.*

Kalit so'zlar: *Turizm, Ichki turizm, turizm salohiyati, sayyohlar, tarixiy yodgorliklar, ma'daniyat, milliy qadriyatlar.*

Аннотация *В статье представлена подробная информация о мерах, принимаемых в нашей стране для развития туризма. Внесены предложения по популяризации историко-культурных объектов нашей республики и привлечению посетителей в эти места. Также были упомянуты меры Президента по дальнейшему совершенствованию туристической сферы. Также были высказаны мнения об использовании инновационных методов в развитии внутреннего туризма. В то же время будут обсуждаться меры по дальнейшему продвижению нашей страны в мире через сферу туризма и привлечению туристов.*

Ключевые слова: *Туризм, Внутренний туризм, туристический потенциал, туристы, исторические памятники, культура, национальные ценности.*

Annotatsion *This article provides detailed information about the efforts being made in our country to develop tourism. The historical and cultural sites of our republic and proposals for attracting visitors to these sites are given. The President's measures to further improve the tourism sector are also cited. In addition, opinions on the use of innovative methods in the development of domestic tourism are noted. At the same time, measures to further promote our country to the world through the tourism sector and attract tourists are also discussed.*

Keywords: *Tourism, Domestic tourism, tourism potential, tourists, historical monuments, culture, national values.*





TANQIDIY NAZAR, TAHLILIIY TAFAKKUR VA INNOVATSION G'OYALAR



Dunyoda vaqtni qiziqarli va mazmunli o'tkazishning juda ko'p usullari mavjud: sayohat yoki sarguzashtlar, biror narsani o'rganish, ziyoratga borish, sivilizatsiya tegmagan noyob joylarni ko'rish, davolanish, faol dam olish, ekstremal sport bilan shug'ullanish yoki faqat oila yoki do'stlar bilan tabiat qo'ynida vaqt o'tkazish, bularning barchasi turizm va umuman turizm sanoati bilan bog'liq. O'zbekistonda turizmning uchta asosiy turi mavjud: kirish, chiqish va ichki turizm.

Kirish va ichki turizmga asosiy va maxsus turistik mahsulotlar kiradi: turistik diqqatga sazovor joylarga ekskursiyalar; mehmonxonalar, dam olish maskanlari, kurortlar, sanatoriylar, turizm qishloqlari, o'tov lagerlari, kempinglarda joylashish; milliy taomlar va vinolarni tatib ko'rish; bayram va festivallarda ishtirok etish; mamlakat bo'ylab qulay sayohat qilish. O'zbekistonda sayohat va dam olishning barcha turlari bo'yicha sport, milliy, yoshlar, ekologik, gastronomik, tibbiy, madaniy, tadbir, ziyorat, adabiy, qishki, velosport va boshqa turizm turlariga bo'lish mumkin, ularning ayrimlarini tanlashda mavsumiylik e'tiborga olinishi kerak.



Bizning jannatmakon yurtimizda bir qator tarixiy obidalar, yodgorliklar va noyob qadriyatlar, mazali taomlari, betakror liboslari ko'plabdir. Mana shu meroslarimizni dunyoga yanada kengroq tanitish maqsadida Prezidentimiz Shavkat Miromonovich Mirziyoyev ham bir qator qaroqlar qabul qilmoqda. Bunga misol qilib men PQ-238-son 27.07.2023 "Turizm yo'nalishidagi islohotlarni yanada jadallashtirish va sohada davlat boshqaruvi tizimini samarali tashkil qilish chora-tadbirlari to'g'risida" qarorini



TANQIDIY NAZAR, TAHLILIIY TAFAKKUR VA INNOVATSION G'OYALAR



amalga joriy etdilar. Ushbu qarorga ko'ra; Shunday tartib o'rnatilsinki, unga muvofiq 2023-yildan boshlab, har yili 30-noyabrga qadar turistlar oqimini oshirish maqsadida Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o'zgarishi vazirligi, Madaniyat vazirligi hamda Yoshlar siyosati va sport vazirligi tomonidan kelgusi yilda o'tkaziladigan madaniy-ko'ngilochar va ommaviy sport tadbirlari, ommaviy-madaniy va konsert-tomosha hamda san'at va kinematografiya tadbirlarining yagona taqvimi shakllantiriladi va Vazirlar Mahkamasi tomonidan tasdiqlanadi.

Bunda, yagona taqvimga kiritilgan tadbirlar xalqaro, respublika va mahalliy darajalarga ajratilgan holda shakllantiriladi hamda tadbirlar haqida ma'lumotlar davlat tilida va kamida ikkita xorijiy tilda Turizm qo'mitasi, Madaniyat vazirligi hamda Yoshlar siyosati va sport vazirligining rasmiy veb-saytlari, ularning targ'ibot platformalari va ijtimoiy tarmoqlarda joylashtirib boriladi deb keltirib o'tilgan.

Bizning yurtimizda ko'plab tarixiy obidalarimiz, yodgorliklarimiz mavjud. Biz ularni asrab-avaylashimiz zarur.



Bugungi kunda xalqimizning qadimiy tarixidan so'zlaydigan noyob yodgorliklarni asrash, o'rganish, tadbiq etish va kelajak avlodlarga yetkazish g'oyat muhim vazifadir. Mamlakatimizning tarixiy obidalarini o'rganish xalqimiz tarixiga oid yangi ashyo va ma'lumotlar olish imkonini, o'tmishimizda yashab o'tgan ajdodlarimizni hozirgi kunga yetib kelishimizdagi o'rinlarini bilishimizga, ularning mehnatlarini qadrlashga yetaklaydi. Shu maqsadda istiqolning dastlabki yillarida ajdodlarimizdan qolgan madaniy tarixiy merosga e'tibor kuchaydi, tarixiy yodgorliklar davlat nazorati ostiga olindi. Bu ichki turizmni yanada yuksaltiradi.





TANQIDIY NAZAR, TAHLILIIY TAFAKKUR VA INNOVATSION G'OYALAR



Foydalanilgan adabiyotlar

1. M.T.Aliyeva “Turizm asoslari” darslik
2. A.M.Abduvohidov, M.X.Yo‘ldoshev “Turizm iqtisodiyoti”
3. I.S.Tuxliyev, R.Hayitboyev, R.Sh.Safarov, G.R.Tursunova
“Turizm asoslari”
4. www.ziyo.net.uz

